AGROSANOAT INTEGRATSIYASI DARAJASINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI YONDASHUVI

Aliqulov Abbos Baxtiyor o‘g‘li
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Qarshi xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi -
ORCID: 0009-0003-6121-1119
E-mail: abbosaliqulov1253@gmail.com

Annotatsiya: *Tezisda agrosanoat integratsiyasi darajasini baholashda qo‘llanilayotgan yondashuvlar tizimlashtirilgan va ularni birlashtiruvchi ko‘p o‘lchovli baholash tizimi taklif etilgan. O‘zbekiston hududlari, Qashqadaryo viloyati tumanlari va xalqaro ma’lumotlar asosidagi tahlil integratsiyani institutsional tarkib, xomashyo salohiyati va qayta ishlash natijasi bo‘yicha alohida baholash uning to‘liq manzarasini bermasligini ko‘rsatdi. Uch o‘lchovni birgalikda qo‘llash hududlar va tarmoqlar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqroq ochib berishi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *agrosanoat integratsiyasi, baholash metodikasi, ko‘p mezonli tahlil, AHP, TOPSIS, qayta ishlash koeffitsienti.*

Аннотация: *В тезисе систематизированы подходы к оценке уровня агропромышленной интеграции и предложена объединяющая их многомерная система оценки. Анализ данных по регионам Узбекистана, районам Кашкадарьинской области и международных данных показал, что раздельная оценка интеграции по институциональной структуре, сырьевому потенциалу и результату переработки не даёт её полной картины. Обосновано, что совместное применение трёх измерений точнее выявляет различия между территориями и отраслями.*

Ключевые слова: *агропромышленная интеграция, методика оценки, многокритериальный анализ, AHP, TOPSIS, коэффициент переработки.*

Abstract: *The paper systematises approaches to assessing the level of agro-industrial integration and proposes a multidimensional assessment system that combines them. An analysis of data on the regions of Uzbekistan, the districts of Kashkadarya region and international data shows that assessing integration separately by institutional structure, raw material potential or processing outcome does not give a complete picture. It is argued that the joint use of the three dimensions reveals differences between territories and industries more accurately.*

Keywords: *agro-industrial integration, assessment methodology, multi-criteria analysis, AHP, TOPSIS, processing coefficient.*

Kirish

Agrosanoat integratsiyasi qishloq xo‘jaligi, qayta ishlash sanoati va savdo o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi murakkab hodisa bo‘lib, uni yagona ko‘rsatkich bilan o‘lchash qiyin. Davis va Goldberg agrobiznes konsepsiyasida bu tarmoqlarni yagona tizim sifatida qaragan bo‘lsa [1], keyingi tadqiqotlarda integratsiya qiymat zanjirini boshqarish shakllari [2] va vertikal koordinatsiya mexanizmlari [3] orqali tavsiflangan. Amaliy tadqiqotlarda esa integratsiya darajasini baholash uchun turlicha ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi. Xo‘jalik toifalari tarkibi, ko‘p mezonli indekslar yoki qayta ishlash hajmi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida qo‘shilgan qiymat zanjirlarini rivojlantirish va klaster hamda kooperativlarni qo‘llab-quvvatlash vazifalari belgilangan [4]. Bu vazifalar ijrosini baholash uchun integratsiya darajasini ishonchli o‘lchaydigan metodik vosita zarur. Tezisning maqsadi shu yo‘nalishdagi tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, integratsiyani baholashning ko‘p o‘lchovli yondashuvini asoslashdan iborat.

Asosiy qism

Integratsiya darajasi uch xil yondashuv asosida baholandi. Birinchi yondashuvda O‘zbekistonning 13 ta hududi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsulotida fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining ulushi tahlil qilindi [5]. Ikkinchi yondashuvda ko‘p mezonli qaror qabul qilish usullari qo‘llanildi: AHP usuli [6] asosida Qashqadaryo viloyatining 16 ta hududi reytinglandi [7], AHP va TOPSIS [8] usullari yordamida esa respublika hududlarining integratsiya salohiyati baholandi [9]. Uchinchi yondashuvda integratsiyaning amaldagi natijasi qayta ishlash koeffitsienti, ya’ni oziq-ovqat sanoati mahsulotining qishloq xo‘jaligi mahsulotiga nisbati orqali o‘lchandi. Bu ko‘rsatkich Jahon banki ma’lumotlari bo‘yicha 125 mamlakat uchun [10] hamda Qashqadaryo viloyati statistik ma’lumotlari asosida tarmoqlar kesimida [11] hisoblandi. Uch yondashuvning qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Agrosanoat integratsiyasini baholash yondashuvlarining qiyosiy tavsifi

O‘lchov	Ko‘rsatkich va usul	Nimani ko‘rsatadi	Asosiy natija
Institutsional	Xo‘jalik toifalarining ulushi	Integratsiyaning tashkiliy shakllari	Qashqadaryoda 2010-2024-yillarda tashkilotlar ulushi 1,2% dan 4,9% ga oshgan, dehqon xo‘jaliklari ustunligi saqlangan

O‘lchov	Ko‘rsatkich va usul	Nimani ko‘rsatadi	Asosiy natija
Salohiyat	AHP, AHP-TOPSIS indekslari	Xomashyo bazasi va hududlar reytingi	Qashqadaryo chorvachilik mahsuloti bo‘yicha yetakchi bo‘lgani holda integratsiya salohiyati bo‘yicha 13 hudud orasida 8-o‘rinda
Natija	Qayta ishlash koeffitsienti, elastiklik	Xomashyoning amalda qayta ishlanish darajasi	O‘zbekistonda koeffitsient 0,15 (125 mamlakat orasida 116-o‘rin); Qashqadaryoda oziq-ovqat yo‘nalishida 2013–2023-yillarda 0,18 dan 0,09 ga tushgan

Manba: muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan [5; 7; 9].

Jadvaldan ko‘rinadiki, har bir o‘lchov integratsiyaning faqat bir jihatini aks ettiradi. Institutsional ko‘rsatkichlar integratsiyaning qaysi shakllarda kechayotganini ko‘rsatadi, biroq uning iqtisodiy natijasini o‘lchamaydi. Ko‘p mezonli indekslar hududlarni xomashyo salohiyati bo‘yicha taqqoslash imkonini beradi, ammo ekspert vaznlariga bog‘liq va bu salohiyat qay darajada ro‘yobga chiqqanini ko‘rsatmaydi. Qayta ishlash koeffitsienti esa natijani bevosita o‘lchaydi, lekin uning sabablarini tushuntirmaydi.

Uch o‘lchov birgalikda qo‘llanganda muhim xulosalar ochiladi. Masalan, Qashqadaryo viloyati chorvachilik mahsuloti hajmi bo‘yicha respublikada yetakchi bo‘lsa-da, integratsiya salohiyati indeksida past salohiyatli guruhga tushadi, oziq-ovqat yo‘nalishidagi qayta ishlash darajasi esa o‘n yil ichida ikki barobar pasaygan. Ayni paytda to‘qimachilik yo‘nalishida koeffitsient 0,17 dan 0,21 ga oshgan. Bunday manzarani faqat bitta ko‘rsatkich asosida ko‘rib bo‘lmaydi: muammo xomashyoda emas, balki uni qayta ishlash bosqichidagi tashkiliy mexanizmlarda ekanini uchala o‘lchovni solishtirish orqali aniqlash mumkin.

Shu asosda integratsiya darajasini baholashning uch bosqichli tizimi taklif etiladi (1-rasm). Birinchi bosqichda integratsiyaning tashkiliy shakllari, ikkinchi bosqichda xomashyo salohiyati, uchinchi bosqichda esa amaldagi natija baholanadi. Yakuniy baho hududlar va tarmoqlar kesimida shakllantiriladi.



1-rasm. Agrosanoat integratsiyasi darajasini baholashning ko‘p o‘lchovli tizimi

Xulosa

Agrosanoat integratsiyasini bitta ko‘rsatkich bilan baholash uning murakkab tabiatini to‘liq aks ettirmaydi. Muallifning tadqiqotlari institutsional tarkib, xomashyo salohiyati va qayta ishlash natijasi bir-birini to‘ldiruvchi o‘lchovlar ekanini va ular birgalikda qo‘llanganda integratsiyadagi asosiy muammolarni aniqroq ko‘rsatishini tasdiqladi.

Taklif etilgan uch bosqichli tizim viloyat va respublika darajasida agrosanoat siyosatining natijadorligini monitoring qilishda qo‘llanilishi mumkin. Buning uchun statistika organlari tomonidan qayta ishlash sanoati ko‘rsatkichlarini tumanlar va tarmoqlar kesimida e’lon qilish hamda klaster va kooperativlar faoliyatiga oid ma’lumotlarni shakllantirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davis J.H., Goldberg R.A. A Concept of Agribusiness. — Boston : Harvard University, Graduate School of Business Administration, 1957.

2. Gereffi G., Humphrey J., Sturgeon T. The governance of global value chains // Review of International Political Economy. — 2005. — Vol. 12, № 1. — P. 78–104.

3. Swinnen J.F.M., Maertens M. Globalization, privatization, and vertical coordination in food value chains in developing and transition countries // Agricultural Economics. — 2007. — Vol. 37, Suppl. 1. — P. 89-102.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-

2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. — URL: https://lex.uz/docs/4567337.

5. Aliqulov A. Agro-sanoat integratsiyasining iqtisodiy samaradorligi: zamonaviy nazariyalar va baholash yondashuvlari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. — 2026. — № 4. — B. 36-42.

6. Saaty T. L. How to make a decision: the analytic hierarchy process // European Journal of Operational Research. — 1990. — Vol. 48, № 1. — P. 9–26.

7. Aliqulov A.B. Integratsiya samaradorligini o‘lchashning metodologik modeli va indikatorlar tizimi // “Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2026. — № 4(2). — B. 195-201.

8. Hwang C.L., Yoon K. Multiple Attribute Decision Making: Methods and Applications. A State-of-the-Art Survey. — Berlin : Springer, 1981. — (Lecture Notes in Economics and Mathematical Systems; Vol. 186).

9. Аликулов А.Б. Комплексная оценка потенциала регионального агропромышленного интегрирования на основе модели AHP-TOPSIS // Econo-scitech-Integration. — 2026. — № 5. — C. 115-120.

10. World Bank. World Development Indicators. — URL: https://data-bank.worldbank.org.

11. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Ochiq ma’lumotlar: Sanoat; Qishloq xo‘jaligi. — URL: https://qashstat.uz.